IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

TIBBIYOT XODIMLARI MUOMALA MADANIYATIDA O‘ZBEK TILINING AHAMIYATI

Rahmatova Zulxumor Mamitxonovna
ADTI, “O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot xodimlarining muomala madaniyatini shakllantirishda o`zbek tilining ahamiyati, bugungi kunda millatimiz tiliga berilayotgan e`tibor masalalari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: o`zbek tili, tibbiyot, o`quv yurti, madaniyat, davlat.

KIRISH

O`zbek tili nafaqat tibbiyot xodimlari uchun, balki barcha jabhalarda muhim ahamiyatga ega. Oldimizda turgan muhim vazifalardan biri o‘zbek tilini dunyo tillari qatoridan joy olishini ta’minlashdir. O‘tgan davr mobaynida biz ona tilimizning barcha bo‘limlarini muayyan darajada o‘rgandik, o‘rganyapmiz. Endi tilni shunchaki aloqa vositasi sifatida emas, uni millat nufuzi sifatida ko‘tarishimiz kerak.

Bugungi kunda xorijiy davlatlardagi 65 ta oliy o‘quv yurtida o‘zbek tili va adabiyoti o‘rganilmoqda, ushbu sohada ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borayotgan chet ellik olimlar safi tobora kengaymoqda.

ASOSIY QISM

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning o‘zbek tilining nufuzini oshirish to‘g‘risidagi ma’ruzasida shunday fikrlar aytib o‘tilgan: “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanilishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.”

Fanlararo integratsiya, sohalararo integratsiya doimiy ravishda mutaxassislar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Biroq bugungi kunda global kommunikatsiyaning kengayishi, madaniyatlararo munosabatlarning jadallik bilan o‘rnatilib borishi, inson hayotining barcha jabhalariga texnologiyalarning shiddat bilan kirib borishi turli fanlar doirasida, jumladan, tilshunoslik va tibbiyot kesimida yangidan-yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga olib kelyapti. Psixiatrik lingvistika, bio, eko, fizio, antropologik lingvistika, artikulatsion va perseptiv fonetika, klinik lingvistika kabi yo‘nalishlarning vujudga kelgani fikrimizning dalilidir. Ayniqsa, “tibbiyot lingvistikasi” deb nomlangan yo‘nalish har ikki soha vakillarida ham katta qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Aniq ta’riflarning hozircha mavjud emasligi tufayli tibbiyot lingvistikasi deganda tibbiyot olamida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan lingvistik tadqiqotlar, fizik-fiziologik rivojlanishdagi nuqsonlarning nutqda aks etishi masalalari bilan shug‘ullanuvchi soha, tilning pragmatik vazifasining bajarilishini tadqiq qiluvchi yo‘nalish kabilar tushuniladi. Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi quyidagi masalalarni qamrab oladi [2]:

- tibbiyotga oid terminologik tizimni tadqiq qilish
- tibbiyot atamalarini xalq shevalaridagi so‘zlar, sinonimlar, ibora va evfemizmlar bilan boyitish;
- bir necha tilli bosma va elektron shakldagi terminologik lug‘atlarni yaratish, ularni takomillashtirish;
- ingliz, rus va boshqa tillardagi tibbiyotga oid matnlarni tarjima qilish, tibbiy terminologiyani qiyosiy tadqiq qilish;
- tibbiyot yo‘nalishidagi OTMlarda o‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitish; - tibbiyot sohasidagi kasbiy muloqotning o‘ziga xosligi, lisoniy (verbal) aloqa jarayoni, zamonaviy shifokorning kommunikativ va sotsiolingvistik

kompetentligini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy-amaliy loyihalar doirasida faoliyat yuritish;

- xalqaro hamkorlik doirasida tashrif buyuradigan xorijiy mutaxassislar hamda xorijda malaka oshiradigan o‘zbekistonlik tibbiyot xodimlari uchun maxsus til kurslarini tashkil qilish va hokazo.

Ko‘rinib turganidek, tilshunoslik va tibbiyot sohalarining vakillari hamkorlikda bajarishlari mumkin bo‘lgan ishlarning ko‘lami keng va globallashuv sharoitida u yanada kengayib boradi.

O‘zbek tili tibbiyot sohasi doirasida integratsiya qilinmoqda. Tibbiyot sohasida qo‘llaniluvchi yangi so‘z va atamalarni rasmiy iste’molga kiritish borasidagi ishlarni tartibga solish hozirgi kunda ushbu tilshunoslik maktabining muhim vazifalaridan biriga aylandi [3].

Tibbiyotga oid atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratishda tilning tasviriy vositalaridan o‘rinli foydalanish zarur, ayni paytda, bu davlatimizning til siyosati bilan bog‘liq maqsad va vazifalarga muvofiq. Nutqmadaniyati og‘zaki va yozma adabiy til me’yorlarini egallash, turli kommunikativ sharoitlarda tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati demakdir. Tilning tasviriy vositalari faqatgina badiiy adabiyotda emas, balki tibbiyotga oid matnlarda ham qo‘llaniladi. Zero, tasviriy ifoda va metaforalardan foydalanish bunday matnlarning ta’sirchanligini, ifodaliligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Jamiyatimizdagi har bir shaxs, har qanday mutaxassis, bugungi kun bilan hamnafas har qanday kadr o‘z ona tilini mukammal egallashi, fikrini mustaqil,ravon, lo‘nda va go‘zal ifoda eta olmog‘i lozim. Ayniqsa, shifokorlarning nutq madaniyatini rivojlantirish va nutqiy muloqot mahoratini oshirish zamonaviy tilshunoslikda tibbiy lingvistikaning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Yunon hakimi Suqrot aytganidek, “Inson ruhini davolamay, tanga shifo berib bo‘lmaydi”. Bu fikr nafaqat o‘tmishda, balki hozirgi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

Lekin ona tili har qanday sharoitda ham inson uchun ruhiy tayanch bo‘lib qoladi. Ayniqsa, milliy o‘zlikni anglash, «Kim yedim-u, kim bo‘ldim?» degan savolga javob topish, xotira tuyg‘usi bilan yashashda ona tilining ahamiyati beqiyos. Aynan ona tili tufayli inson o‘z ajdodlari bilan doimo ruhiy muloqot qilib yashaydi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Jumaev I. Tibbiy odob va madaniyat − shifokor va bemorga madad. (Elektron resurs): https://buxvssb.uz/tibbiy-odob-va-madaniyat-shifokor-va- bemorga-madad/ 2018

2. Kultura obщeniya vracha i studenta. (Elektron resurs): https://studfiles.net/preview/548345/

3. Maligina Ye.N. Sredstva smyagcheniya vыskazыvaniya v meditsinskoy rechi: Avtoref. …. dis. kand. filol. nauk. Samara, 2017. – (Dissertatsiyaning elektron adresi): http://www.dissercat.com/content/sredstva-smyagcheniya-vyskazyvaniya-v-meditsinskoi-rechi#ixzz5N1TQbI1z

4. Mirazizov A. O‘zbek nutqiy etiketiga doir ayrim kuzatishlar // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari, 2016.− № 4 (9). – B.61-64.

5. Omonturdiev A. Professional nutq evfemikasi (chorvadorlar nutqi misolida): Filol. fan. dokt diss. – Toshkent, 2019. – 253 b.